



Academia Review-A Multidisciplinary Online Journal

ISSN (Online): 3070-6726

Website: <https://academia.org>

Volume 2, Issue 6, June, 2026



This work is Licenced under Creative Commons Attribution 4.0 International License (CC BY 4.0).

Morphological Formation Methods of New Terms in the Arabic Language

Khasanova Dilsora Bakhtiyor kizi,

3rd year student of the Department of Philology and Language Teaching
(Arabic) at the Oriental University

tel: +998930879771

e-mail: xasanovadilsora0801@gmail.com

Abstract. Science, technology, and information exchange are rapidly developing today. Such development affects the vocabulary of all languages, as new terms emerge in the language system as a result of changes in socio-political life, the development of science and technology, and the advancement of culture and art. This article analyzes the processes of formation of new terms in Modern Arabic, their morphological features, and the main methods of term formation. The role of derivation (ishtiqaq), arabization (ta'rib), and blending (naht) in creating new terms in Arabic is explained with examples.

Keywords. Arabic language, term, linguistics, morphology, terminology, derivation, arabization, blending.

Arab Tilida Yangi Terminlarning Morfologik Shakllanish Usullari

Xasanova Dilsora Baxtiyor qizi,

*Oriental universiteti Filologiya va tillarni o'qitish (arab tili) ta'lim
yo'nalishining 3-kurs talabasi*

tel: +998930879771

e-mail: xasanovadilsora0801@gmail.com

Annotatsiya. Ilm-fan, texnologiya va axborot almashinuvi bugungi kunda tez rivojlanmoqda. Bunday rivojlanish barcha tillarning lug'at boyligiga ta'sir qiladi, chunki ijtimoiy-siyosiy hayotdagi yangilanishlar, ilm-fan va texnologiyaning rivojlanishi, madaniyat va san'at taraqqiyoti natijasida til tizimida ham yangidan-yangi terminlar paydo bo'ladi. Ushbu maqolada zamonaviy arab tilida yangi

terminlarning shakllanish jarayonlari, ularning morfologik xususiyatlari hamda termin yasashning asosiy usullari tahlil qilinadi. Arab tilida yangi terminlar yaratishda ishtiyoq, ta'rib va naht usullarining o'zni misollar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar. termin, tilshunoslik, morfologiya, terminologiya, ishtiyoq, ta'rib, naht.

Dunyoda ilm-fan, texnologiya va axborot almashinuvi juda tez rivojlanmoqda. Bunday rivojlanish barcha tillarning lug'at boyligiga ta'sir qiladi. Har bir yangi texnologiya, yangi ilmiy kashfiyot yoki yangi ijtimoiy hodisa tilga yangi tushunchalarni olib kiradi. Natijada bu tushunchalarni ifodalash uchun yangi terminlar paydo bo'ladi. Arab terminologiyasining shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyot natijasidir. Islom sivilizatsiyasining yuksalish davrida falsafa, tibbiyot, matematika va astronomiya kabi fanlarning rivojlanishi bilan ko'plab ilmiy terminlar yuzaga kelgan. O'rta asrlarda yunon, fors va boshqa tillardan o'zlashtirilgan ilmiy tushunchalar arab tiliga moslashtirilgan va keyinchalik mustaqil terminologik tizimning shakllanishiga xizmat qilgan. Bu jarayon arab tilining ilmiy til sifatidagi mavqeini mustahkamlagan¹. Shuningdek arab tili zamonaviy rivojlanish jarayonlaridan chetda qolmagan tillardan biridir. Ayniqsa, kompyuter texnologiyalari, internet, sun'iy intellekt, iqtisodiyot va tibbiyot kabi sohalarda yangi terminlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu sababli arab tilida yangi terminlar yaratish masalasi tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Terminologiya – e'tiborga munosib, yillar davomida yangilanib boruvchi, sohaning amaliy va nazariy masalalari keng ko'lamda o'rganiladigan ilm sohasi hamda terminlarni o'rganish jarayoni zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan hisoblanadi². Arab tilining boshqa tillardan farqli jihatlaridan biri uning boy morfologik tizimga ega ekanidir. Arab tilidagi aksariyat so'zlar ma'lum o'zaklardan hosil qilinadi. Bu esa yangi terminlarni yaratishda tilning ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanishga yordam beradi. Ayniqsa, sarf ilmi arab tilida yangi terminlar hosil qilishning asosiy nazariy manbasi hisoblanadi.

¹ Mirziyotov sh. Arab tilida termin va atama tushunchasi//FANLARAROTAFAKKURRESPUBLIKA ILMIY-AMALIY konferensiyasi materiallari. 2 jildlik. 2-jild. – Toshkent, 2026. – B. 20-21.

² Sultanova Sh. Grammatik terminlar elektron lug'atini yaratishning lingvistik asoslari. Fil.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent.2022.

Arab tilida termin “مصطلح” deb ataladi. Termin (lotincha: terminus – chegara“, „had“) – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga doir tushunchani ifodalovchi soʻz yoki soʻz birikmasi. Termin umumxalq tiliga muayyan terminologik tizim orqali oʻtadi, binobarin, termin va umumisteʼmoldagi soʻzlar bir-birini toʻldiradigan leksik birliklardir³. Terminlarning asosiy vazifasi ilmiy tushunchalarni qisqa, aniq va tushunarli shaklda ifodalashdan iborat. Zamonaviy davrda terminologiya masalasi arab tilshunosligida muhim oʻrin egallaydi. Chunki ilm-fan rivojlangan sari yangi tushunchalar soni ham ortib boradi. Terminologik tizim doimiy harakatdagi struktura boʻlib, u jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyoti,

ijtimoiy ehtiyojlari va global kommunikatsiya jarayonlari bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan, ichki va tashqi manbalar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir terminlarning shakllanish mexanizmini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ichki manbalar asosida terminlarning boyishi tilning oʻz ichki resurslari orqali yangi ilmiy birliklarni yaratish imkoniyatini aks ettiradi⁴. Agar til bu tushunchalarni ifodalash imkoniga ega boʻlmasa, boshqa tillardan soʻz oʻzlashtirish jarayoni kuchayadi. Arab tilshunoslari esa imkon qadar yangi terminlarni arab tilining ichki qonun-qoidalari asosida yaratishga harakat qiladilar.

Masalan: حاسوب – kompyuter, هاتف ذكي – smartfon, ذكاء اصطناعي – sunʼiy intellekt, منصة رقمية – raqamli platforma. Bu terminlarning ayrimlari arab tilining ichki imkoniyatlari asosida yaratilgan boʻlsa, ayrimlari boshqa tillardan moslashtirilgan.

Terminlarning toʻgʻri ishlatilishi tilning aniqligini taʼminlaydi. Har bir termin oʻzida aniq bir tushuncha yoki bilimni ifodalovchi kalit soʻz boʻlib xizmat qiladi hisoblanadi. Tilshunoslar va mutaxassislar terminlarni aniq va bir xil mazmunda ishlatishlariga katta ahamiyat beradilar. Aks holda, turli yoʻnalishlardagi odamlar oʻrtasida kommunikatsiya toʻsiqlari yuzaga kelishi mumkin. Terminlarning toʻgʻri ishlatilishi esa oʻz oʻrnida ilmiy muloqotda aniq va tushunarli natijalarga erishilishiga yordam beradi. Shuning uchun ilmiy-

³ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Termin>.

⁴ Sugʻdiyona, I. (2026). “Terminlarning boyishi ichki va tashqi manbalari”. Ilm-fan xabarnomasi, 13(2), 813-817.

tadqiqotlar jarayonida ham, ta'limda ham va kundalik hayotda ham terminologiyani puxta bilish muhim sanaladi⁵.

Termin yasashning asosiy usullari: ishtiyoq, ta'rib va naht. *Ishtiyoq usuli va uning xususiyatlarini* ko'rib chiqsak.

Ishtiyoq arab tilidagi eng qadimiy va eng muhim so'z yasash usullaridan biridir. Bu usulda bir o'zakdan turli grammatik shakllar va yangi ma'nodagi so'zlar hosil qilinadi. Arabcha ishtiqooq-hosila amalda boshqa so'zdan yangi so'z hosil qilishni anglatadi; ikkala so'zning o'zagi bir va umumiy leksik ma'nosi bir bo'lib, lekin morfologik jihatdan bir-biriga o'xshamaydi. Ularning lug'aviy ma'nosi shu ikki so'zda takrorlangan ildizning asl elementlari bilan ifodalanadi⁶. Arab tilining o'zak tizimi yangi terminlar yaratishda juda qulay imkoniyat beradi. Masalan, كتب o'zagidan quyidagi so'zlar hosil bo'ladi:

كاتب – yozuvchi

مكتوب – yozilgan

مكتبة – kutubxona

كتابة – yozish

Bu so'zlarning barchasi bitta ma'no asosiga ega. Shu sababli yangi termin yaratishda ham o'zak va vazn tizimidan foydalaniladi. Zamonaviy texnologik terminlar ham ko'pincha ishtiyoq asosida hosil qilinadi:

برمجة → برمج – dasturlash

مبرمج → برمج – dasturchi

رقمنة → رقمن – raqamlashtirish

Ishtiyoq usulining asosiy afzalligi shundaki, yangi so'z arab tilining tabiiy qoidalariga mos holda shakllanadi. Natijada u foydalanuvchilar uchun tushunarli va qulay bo'ladi.

Ta'rib usuli va uning xususiyatlari. Ta'rib boshqa tillardan kirgan so'zlarni arab tiliga moslashtirish jarayonidir. Arablashgan terminlar deganda arab tili qoidalari asosida paydo bo'lgan yoki arabcha so'zlarga o'xshash so'zlar

⁵ Rozmetova M, Baltayeva A. O'zbek tilida terminlarning ishlatilishi // Modern education and development. – Toshkent, 2026. - №46. – B. 403

⁶ Qurbonov S. Arab tilida termin yasash uslublari derivatsiyaning ahamiyati// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Toshkent, 2024. – B. 53.

tushuniladi⁷. Bugungi global dunyoda ilm-fan va texnologiyaning asosiy qismi g'arb tillari orqali tarqalmoqda. Shu sababli arab tiliga ham ko'plab xorijiy terminlar kirib kelmoqda. Arab tilida bu terminlar talaffuz va yozilish jihatidan moslashtiriladi. Masalan:

تلفاز – televizor, إنترنت – internet, ديمقراطية – demokratiya, راديو – radio.

Ba'zi hollarda arab tilshunoslari chet so'z o'rniga arabcha muqobil yaratishga harakat qiladilar. Masalan, "computer" so'zi uchun حاسوب termini ishlab chiqilgan. Bu so'z "hisoblash" ma'nosini bildiruvchi حسب fe'lidən hosil qilingan. Ta'rib usuli tilning zamonaviy ehtiyojlarga tez moslashishini ta'minlaydi. Biroq haddan tashqari ko'p o'zlashma so'zlarning kirib kelishi tilning milliy xususiyatlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli arab til akademiyalari termin yaratishda muvozanatni saqlashga harakat qiladi.

Naht usuli va uning o'ziga xosligi. Naht usuli ikki yoki undan ortiq so'zni qisqartirib, yangi so'z hosil qilishni anglatadi. Bu usul qadimgi arab tilida ham mavjud bo'lgan. Masalan:

بسملة — بسم الله الرحمن الرحيم
حوقة — لا حول ولا قوة إلا بالله
حمدلة — الحمد لله

Naht usuli zamonaviy terminologiyada ham uchraydi. Ayniqsa, qisqa va ixcham ifoda talab qilinadigan holatlarda bu usuldan foydalaniladi. Bu usul arab tilida boshqa usullarga qaraganda kamroq qo'llanadi, biroq zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarida uning ahamiyati ortib bormoqda.

Zamonaviy terminologiyaning rivojlanish omillari

Arab tilida yangi terminlarning paydo bo'lishiga bir necha omillar sabab bo'lmoqda:

1. *Texnologik taraqqiyot.* Kompyuter va internet texnologiyalari yuzlab yangi terminlarni yuzaga keltirdi: تطبيق – ilova, بيانات – ma'lumotlar, بيانات – ma'lumotlar

2. *Tibbiyot sohasida* ham yangi terminlar keng qo'llanmoqda:

⁷ Sadoqat Rasul qizi Rajabova. Qonun tili terminologiyasining tasnif masalasi. //CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES. – T.: VOLUME 2| ISSUE 1| 2022. –263–271-b.

لقاح – vaksina, فيروس – virus, جراحة – jarrohlik

3. *Sun'iy intellekt va raqamli texnologiyalar*. Bugungi kunda eng faol rivojlanayotgan terminologik yo'nalishlardan biri sun'iy intellektidir. ذكاء اصطناعي – sun'iy intellect, تعلم آلي – mashinaviy o'qitish, روبوت – robot.

Ushbu omillar orqali nafaqat arab tili balki, boshqa tillarning terminologiyasi ham rivojlanmoqda. Arab tilida yangi terminlarning morfologik shakllanishi tilning boy ichki imkoniyatlariga asoslanadi. Ishtiqoq, ta'rib va naht usullari zamonaviy terminologiyaning asosiy manbalari hisoblanadi. Ayniqsa, ishtiqoq usuli arab tilining tabiiy morfologik tizimiga mos bo'lgani sababli eng samarali usul sifatida qaraladi. Ta'rib esa boshqa tillardan kirib kelayotgan ilmiy va texnik tushunchalarni tez qabul qilish imkonini beradi. Naht usuli esa ixcham va qulay terminlar yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda arab tili nafaqat diniy va tarixiy til, balki zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni ifodalashga qodir rivojlanayotgan til sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyotov sh. Arab tilida termin va atama tushunchasi//FANLARARO TAFAKKUR RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY konferensiyasi materiallari. 2 jildlik. 2-jild. – Toshkent, 2026. – B. 20-21.
2. Qurbonov S. Arab tilida termin yasash uslublari derivatsiyaning ahamiyati// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Toshkent, 2024. – B. 53. 61
3. Rozmetova M, Baltayeva A. O'zbek tilida terminlarning ishlatilishi // Modern education and development. – Toshkent, 2026. - №46. – B. .403
4. Sadoqat Rasul qizi Rajabova. Qonun tili terminalogiyasining tasnif masalasi. //CENTRAL ASIAN RESEARCH JOURNAL FOR INTERDISCIPLINARY STUDIES. – T.: VOLUME 2| ISSUE 1| 2022. – 263–271-b.
5. Sug'diyona, I. (2026). "Terminlarning boyishi ichki va tashqi manbalari". Ilm-fan xabarnomasi, 13(2), 813-817.
6. Sultanova Sh. Grammatik terminlar elektron lug'atini yaratishning lingvistik asoslari. Fil.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent.2022.
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Termin>.